

KICHIK SHAHARLARDA AGROSANOAT MAJMUINI RIVOJLANISH IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Qurbanov Pahlavon Rustamovich
*Qarshi davlat universiteti doktoranti (DSc),
Geografiya fanlari nomzodi, dotsent*

Mustaqillik yillarida qishloq manzilgohlarida sanoat (asosan yengil va oziq ovqat) tarmoqlarini rivojlantirish va shu asosda yangi ish o'rinalarini tashkil qilish, qishloqlarni toza ichimlik suvi, tabiiy gaz, transport va boshqa infratuzilma shaxobchalar bilan ta'minlanishini yanada yaxshilash maqsadida keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2009 yilda respublika bo'yicha 966 ta qishloq shaharchalar toifasiga o'tkazildi, natijada respublika o'rtacha urbanizatsiya darajasi 35.8 foizdan 51.7 foizga ko'tarildi.

Shuningdek, qishloq joylari aholisining turmush darajasini ko'tarish, ularga sifatli tibbiyot va maorif xizmatini ko'rsatish, shahar va qishloq o'rtasidagi ijtimoiy – iqtisodiy tafovutlarini kamaytirishni nazarda tutuvchi "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" yili Davlat dasturi qabul qilindi [5].

Jumladan, ushbu dasturga asosan tashkil qilingan yangi shaharchalarning 119 tasi (12,3 foizi) respublikaning eng qishloqlashgan hududlaridan biri, o'ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy, demografik rivojlanish xususiyatlariga ega Qashqadaryo viloyati hissasiga to'g'ri kelgan. Natijada viloyatdagi jami shahar joylari soni 16 tadan 135 taga, urbanizatsiya darajasi 24.6 foizdan 43.3 foizga ko'tarilgan. Jami shahar joylarning 12 tasini shahar va 123 tasini shaharchalar tashkil qilgan.

Tashkil etilgan yangi shaharchalar soniga ko'ra vohaning o'ziga xos "Farg'ona vodiysi" bo'lgan Shaxrisabz (18 ta), Kitob va Yakkabog' tumanlari (har birida 13 tadan) alohida ajralib turadi. Aholi soni va zichligi yuqori bo'lgan ushbu hududda jami 44 ta qishloq shaharcha maqomini oldi (viloyatdagi jami shaharchalarning 37.3 foizi). Shuningdek, cho'l hududlarini o'zlashtirish bilan bog'liq, asosan qishloq xo'jaligi va agrosanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan Qarshi (15ta), Koson (14 ta), Kasbi (9 ta), Nishon (8 ta) kabi tumanlar ham bu borada o'z mavqeiga ega. Ayni vaqtda viloyatning Qamashi, G'uzor, Mirishkor va Dehqonobod tumanlarining faqatgina ikkitadan – beshtagacha qishloq joylari shaharchalar qatoriga o'tkazildi.

2023 yil 1 yanvar holatida Qashqadaryo viloyatida jami 129 ta (12 ta shahar va 117 ta shaharcha) shahar joylari mavjud bo'lib, ularning soni 2009 yilga nisbatan 6 taga kamaygan [4]. Bu kamayish shaharchalar hisobidan bo'lib, asosiy sababi 2018 yilda Shahrisabz shahriga viloyatga bo'ysunuvchi shahar maqomining berilishi, hamda unga tutash bo'lgan Choshtepa, Novqat, Kunchiqar darvoza, Chuqur qishloq, Qorasuv, Namaton shaharchalaring mazkur shahar xududidaga qo'shib yuborilishi sanaladi.

Viloyat shahar joylari funksional tarkibi va aholi soni klassifikatsiyasiga ko'ra juda zaif rivojlangan bo'lib, yirik, katta va o'rta shaharlar sinfining har birida atigi

bittadan shaharlar mavjud. Jumladan, viloyat markazi vazifasi bajaruvchi Qarshi – yirik, mintaqaviy xizmatlar va turizm markazi vazifasini bajaruvchi Shahrisabz – katta, tuman markazi vazifasini bajaruvchi Koson – o'rta shaharlar toifasiga tegishli [2].

Aholisi 20-50 ming kishilik yarim o'rta shaharlar guruhibda 8 ta shahar joylar bo'lib, ulardan Kitob, Qamashi, Muborak, G'uzor, Chiroqchi, Yakkabog', Beshkent shaharlari tuman markazi vazifasi bajarsa, Kasbi tumanidan joylashgan Maymanoq (aholisi – 24.7 ming kishi) shaharcha maqomiga ega.

Viloyatning 91.5 foiz yoki 118 ta shahar joylari kichik va mayda shaharlar toifasiga taalluqli. E'tiborli tomoni mazkur guruhiba Nishon tumani markazi vazifasi bajaruvchi Yangi-Nishon hamda shu tumanda joylashgan Talimarjon shaharlari ham mavjud. Shuningdek, Mug'lon (Kasbi tumani), Karashina (Dehqonobod tumani), Yangi-Mirishkor (Mirishkor tumani), Yettitom (Ko'kdala tumani) kabi shaharchalar ham tuman markazi vazifasini bajarishadi. Qolgan aksariyat shaharchalar funksiyasiga ko'ra agroindustrial, resurs, xizmat ko'rsatish va QFY markazlari vazifalarini bajarishadi.

Qashqadaryo viloyati respublikamizda o'zining tabiiy gaz, neft, turli xil agrokimyoiy resurslarning zaxiralari bilan oldinda turadi. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda viloyat xo'jaligi ko'proq agrar- industrial yo'nalishda rivojlanib kelgan bo'lsa, keyingi yillarda mintaqaning eksport salohiyati ko'tarish maqsadida chet el investitsiyalari tog'-kon, yoqilg'i, kimyo, yengil va oziq – ovqat sanoatiga hamda transport infratuzilmasiga jalb etish asosida industrial-agrar yo'nalishda rivojlanib bormoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, viloyat asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'lgan paxta va g'alla yetishtirishda respublikada birinchi egallaydi.

Ammo mazkur viloyatda ham o'ziga xos muammolar mavjud. Masalan, mintaqa sanoat mahsulotlarining asosiy qismi undiruvchi va tog' – kon sanoatiga to'g'ri kelib, unda neft va gaz qazib olish yetakchi o'rinni egallaydi. Bu holat sanoatning ko'proq mono ixtisoslashuviga, qayta ishlovchi va to'liq siklli sanoat tarmoqlarining ancha sust rivojlanishiga olib kelgan.

Viloyatda tabiiy gazni qayta ishlash sanoati ancha yaxshi rivojlangan bo'lsada, u asosan yoqilg'i sifatida ishlatilishi tufayli rentabilligi ancha past. Tabiiy gazdan kimyo sanoatida keng foydalanish, sun'iy va sintetik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi obyektlarni ko'paytirish bugunning dolzarb vazifasi sanaladi. O'z o'rnida mazkur sanoat tarmog'ining viloyat urbanizatsiyalashuv jarayonlariga ta'siri ham turlicha baholanadi.

Birinchidan, yuqorida xom ashyo mahsulotlarini qazib olish va qayta ishlash sanoati negizida shaharlar (Muborak, Mash'al, Yangikent) hosil bo'lishi ijobjiy holat hisoblansa, aksincha, foydali qazilma turlarining tugaydigan mineral resurs ekanligi ushbu shaharchalarning kelajak rivojlanishini cheklab qo'yadi [2]. Ikkinchidan, mazkur sanoat tarmoqlari hududlar tabiiy sharoiti va ekotizimlarning salbiylashuviga, pirovardida aholi salomatliligiga katta xavf soladi.

Qayd etish lozimki, shahar joylar soni va urbanizatsiya darajasini “sun’iy” ko’tarish mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini to’laligicha hal qilishning yagona yechimi bo’lib xizmat qilmaydi. Chunki, yangi shaharchalar toifasiga kiritilgan qishloq aholi manzilgohlarining aksariyatida shahar hosil qiluvchi omillar (sanoat, infratuzilma, bank – moliya, ilm – fan, malakali kadrlar) yetarli darajada shakllanmagan yoki qisman rivojlangan. Shu bilan birga, viloyatdagi yangi shaharchalarning asosiy qismi qishloq xo’jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashganligi, ichimlik suvi, tabiiy gaz, kommunikatsiya va transport infratuzilmasi kabi kundalik xayotdagi muhim sotsial sohalar bilan yaxshi ta’minlanmaganligi, ya’ni “yangi shaharlarning eski muammolari” yoki “kichik shaharchalarning katta muammolari” (prof. A. Soliyev iboralari) saqlanib qolayotganligi bilan xarakterlanadi. Bu esa shahar va shahar joylar to’g’risidagi umumme’yoriy mezonlarga mos kelmaydi. Demak, aytish mumkinki, viloyat urbanistik tarkibi rivojlanmagan va u takomillashtirishni talab etadi.

Viloyatning Kitob-Shaxrisabz botig’ida sanoat ahamiyatiga ega bo’lgan foydali qazilma konlarining kamligi, aksincha, katta miqdordagi mehnat resurslari mavjudligi va transprot infratuzilma shaxobchalari bilan yaxshi ta’minlanganligi bois, bu hududda ko’p mehnattalab (to’qimachilik, trikotaj, tikuvchilik, meva – konserva va h.k.) sanoat tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirish maqbul hisoblanadi. Istiqbolda viloyat shaharlarning funksional tiplariga alohida e’tibor qaratish lozim bo’ladi.

Jumladan, kichik shaharlar (agroshaharchalar) ning aksariyati hozirgi vaqtda mintaqadagi Qishloq fuqorolar yig’inlari (QFY) markazi vazifasini bajarishadi. Ular o’zлari joylashgan QFYga tegishli qishloqlar aholisiga tibbiyot (qishloq vrachlik punktlari), ta’lim (odatda, mavjud kollejlar shu shaharchalarda joylashgan), boshqa maishiy va servis xizmatlarini ko’rsatib boradi [1].

Ammo kichik shaharlarning aksariyatida haqiqiy shaharlarga xos sanoat korxonalari soni va sanoat mahsulotlari tayyorlash darjasini past. Shu sababdan, keljakda kichik shaharlarni o’zлari joylashgan hudud ho’jalikning ixtisoslashuvi, ijtimoiy va transport infratuzilmasi bilan ta’minlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda rivojlantirish maqsadga muvrfiq.

Masalan, Mug’lon, Denov, Maymanoq, Po’loti, Guvalak, Pomuq, Nishon, Samarqand, Paxtaobod, Guliston kabi o’nlab shaharchalarda paxta xom ashvosining yetarli ekanligini hisobga olib, ularda paxtani qayta ishslash, to’qimachilik, tikuvchilik korxonalarini tashkil etish va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, Mevazor, Madaniyat, Varganza, Sevaz, Qutchi, Chorshanbe singari shaharchalarda meva-konserva va uzumni qayta ishslash zavodlarini tashkil etish lozim. Sababi, hozirgi vaqtda yetishtirilgan paxta tolasining juda oz miqdori joyida qayta ishlanmoqda, mevachilik va uzumchilikda, qulay xom ashyo imkoniyatlari mavjudligiga qaramasdan, ushbu yo’nalishdagi sanoat tarmoqlari sust rivojlangan [3].

Mintaqa aholisining go’sht va sut mahsulotlariga bo’lgan ehtiyojini qondirish maqsadida chorvachilik tarmoqlari yaxshi rivojlangan Ko’qdala, Maymanoq, Fazli,

Po'loti, Jeynov, Qovchin shaharchalarda yangi quvvatlarni ishga tushirish maqsadga muvofiq.

Respublikaning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Qashqadaryo viloyatida ham 2009 yilda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturini amalga oshirish jarayonida yuzlab qishloqlar shaharcha maqomini oldi. Tahlillar ko'rsatishicha, hozirgi kunda ularning barchasi ham bunday talabga, me'yoriy ko'rsatkichlarga to'liq javob bermaydi. Yangi shaharchalarning ayrimlari, jumladan Yangikent, Obihayot, Qorliq, Denov, Rabot, Jeynov, Chiyal va boshqalarda shahar hosil qiluvchi tarmoqlar mavjud. Ammo, qolgan aksariyat yangi shaharchalarda sanoat, transport, aholiga xizmat ko'rsatish va servis sohalarini zamon talablari asosida shakllantirish zarur. Kelajakda viloyat iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash yordamida shaharlar rivojlanishini ta'minlash zarur.

Qashqadaryo viloyatida yoqilg'i, mineral xom ashyo resurslaridan tashqari paxta, meva, uzum, dorivor o'tlarni qayta ishlash, rekreatsiya va turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ham katta. Hozircha mintaqada yetishtirilgan paxta xom ashvosiga nisbatan uni qayta ishlash respublika ko'rsatkichidan (taxminan 50 % foizdan ortiqroq) ancha past, agrosanoat tarmoqlarining rivojlanib borishi o'z navbatida agroshaharchalar iqtisodiyotini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари (Қишлоқ жойлар географияси). Т.: "Fan va texnologiya", 2009. – 212 б.
2. Солиев А. Шаҳарлар географияси. Маъruzalap matni – Т.: ЎзМУ, 2000.
3. Қурбонов П.Р. Жанубий Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари. Монография. -Т.: «MUMTOZ SO'Z». 2019 йил. – 180 б.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti. www.stat.uz
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2009 йил 26 январдаги ПҚ-1046-сон [карори](https://lex.uz/docs/1437232). <https://lex.uz/docs/1437232>

ПРОБЛЕМЫ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ФАКТОРЫ ЕЁ ОБЕСПЕЧЕНИЯ

Юнусова Римма Рахманбердиевна
СМОП ТГЭУ и УрГЭУ, доцент кафедры
«Корпоративная экономика и менеджмент»

В настоящее время, несмотря на достаточно глубокую проработанность научного аппарата экономической безопасности, продолжает актуальным оставаться ряд теоретических вопросов ее обеспечения. Одним из таких вопросов следует считать исследование факторов и условий экономической безопасности, которые оказывают существенное влияние на ее состояние вплоть до установления зависимостей, определяющих закономерности и тенденции ее развития.